

**O‘ZBEKISTONDA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA
AUDITORLIK ETIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Murodov Otabek Xabibullayevich

“Bekmirza Omad” MCHJ rahbari

E-mail: ottabek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda auditorlik kasbiy etikasini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Xalqaro tajribalar - Yevropa (EUROSAI), Avstraliya, Janubiy Afrika va Indoneziya amaliyoti tahlil qilinib, ulardan kelib chiqadigan tavsiyalar milliy amaliyotga moslashtirilgan. Auditorlarning mustaqilligi, kasbiy skeptisizmi va emosional intellekti etik qaror qabul qilishda muhim omil sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: auditorlik etikasi, kasbiy skeptisizm, auditor mustaqilligi, xalqaro tajriba, O‘zbekiston, axloqiy qaror qabul qilish, professional mas’uliyat, auditorlik kodeksi, davlat sektorida etik audit, manfaatlar to‘qnashuvi, emosional intellekt, kasbiy standartlar, jamoatchilik ishonchi, auditorlik faoliyatining shaffofligi.

Kirish

Bugungi global iqtisodiy muhitda auditorlik faoliyatining samaradorligi va uning jamoatchilik ishonchidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, shaffofligi va haqqoniyligi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, auditorlik kasbiy etikasi nafaqat texnik me‘yorlarga rioya etish bilan cheklanmaydi, balki keng ma’noda jamiyat oldida mas’uliyatni anglash, mustaqil fikr yuritish, manfaatlar to‘qnashuvidan qochish va qaror qabul qilish jarayonida yuksak axloqiy me‘yorlarga amal qilishni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar va xalqaro moliyaviy bozorlarga integratsiya jarayonlari auditorlik kasbining nufuzini yanada oshirmoqda. Xususan, 2021 yilda qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun milliy auditorlik tizimini xalqaro andozalarga yaqinlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasbiy etika talablariga qat’iy rioya etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ammo amalda auditorlarning mustaqilligi, kasbiy skeptisizmi va etik qaror qabul qilish jarayonlarini ta’minlashda qator muammolar mavjud.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, etik me’yorlar va kasbiy standartlarning samarali joriy qilinishi korrupsiya xavfini kamaytiradi, iqtisodiy munosabatlarda adolat tamoyillarini mustahkamlaydi va auditorlik kasbining jamiyatdagi ishonchini oshiradi. Yevropa mamlakatlarida axloqiy audit davlat boshqaruvida muhim mexanizm sifatida qaralsa, Avstraliyada auditor mustaqilligini himoya qilish uchun sug‘urtaga asoslangan modellar ishlab chiqilgan. Janubiy Afrikada kasbiy skeptisizm darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar, auditorlarga tashqi va ichki bosimlarning ta’sirini ko‘rsatib bergan. Indoneziyada esa kasbiy etika bilan bir qatorda emosional intellekt ham qaror qabul qilish jarayonida muhim omil sifatida qaralgan. Shu jihatdan, O‘zbekiston uchun xalqaro tajribalardan ilg‘or elementlarni olib, milliy amaliyotga moslashtirish zarur. Bu nafaqat auditorlik kasbining huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlaydi, balki uning axloqiy ustunlarini ham kuchaytiradi.

Adabiyotlar sharhi

Auditorlik kasbiy etikasini takomillashtirish masalasi respublikamizda keng ilmiy muhokama qilingan yo‘nalishlardan biri bo‘lsa-da, amaliyotda uning

nazariy-uslubiy asoslari to'liq ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, kasbiy skeptisizmni baholash, auditor mustaqilligini ta'minlash va axloqiy qaror qabul qilish mexanizmlari bo'yicha milliy tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois O'zbekiston amaliyotida ko'proq xalqaro manbalarga, jumladan Yevropa, Avstraliya, Janubiy Afrika va Indoneziya tajribalariga tayanish holatlari kuzatiladi.

Avstraliyalik tadqiqotchilar (Townsend, 2014) auditorlik etikasini tartibga solishda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va mustaqillikni himoya qilish mexanizmlariga e'tibor qaratgan. Ular auditor-mijoz munosabatlaridagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida moliyaviy hisobot sug'urtasi modelini taklif qilib, bu orqali jamoatchilik ishonchini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatganlar.

Janubiy Afrikada olib borilgan izlanishlar (Mbanjwa, 2019) esa kasbiy skeptisizmga bosimlarning mavjudligi, ayrim hollarda auditorlarning etik me'yorlarga amal qilishda sustkashlikka yo'l qo'yishlari kabi muammolarni ochib berdi. Bu tadqiqotda buxgalter va auditorlarning o'z kasbiy hamkasblari haqidagi fikrlari o'rganilib, etika bo'yicha bilim yuqori bo'lsa-da, amaliyotda bosimlar ta'siri sezilarli ekanligi aniqlangan.

Indoneziyalik olimlar (Simatupang va Diana, 2025) professional etika bilan bir qatorda emosional intellektning ham qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaganlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorlarda emosional qobiliyatlarni rivojlantirish etik qarorlarning sifatini oshirib, mijozlar ishonchini mustahkamlaydi va auditorlik xulosalarining aniqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda (Surya va boshqalar, 2021; Abdumannonovna, 2024) kasbiy etikaning audit sifati bilan uzviy bog‘liqligi, uning tashkilot ichki madaniyati, regulyativ mexanizmlar va etik treninglar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Bunday yondashuvlar auditorlik kasbining jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi va iqtisodiy munosabatlarda adolat tamoyillarini ta’minlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda auditorlik kasbiy etikasini takomillashtirish bo‘yicha milliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, xalqaro tajribalarni e’tiborga olgan holda milliy kodeks va me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Bu nafaqat auditorlarning mustaqilligi va kasbiy skeptisizm darajasini oshirishga, balki jamoatchilik ishonchi va auditorlik xizmatlari shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlariga asoslangan. Xalqaro tajribalardagi huquqiy-me’yoriy asoslar, auditorlik kodekslari va kasbiy etika bo‘yicha tadqiqotlar solishtirildi. Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, solishtirma va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yevropa amaliyotida axloqiy audit davlat sektorida yaxshigina institusionallashtirilgan bo‘lib, uning markazida oliy auditor tashkilotlarining (SAI) rolini kuchaytirish va ularning ish faoliyatiga etika, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini to‘liq integratsiya qilish yotadi. EUROSAI doirasida tuzilgan Audit & Ethics ishchi guruhi (TFA&E) SAILarning vazifasi faqat moliyaviy nazorat bilan cheklanmasdan, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsion hamda firibgarlik SJIF:5.219

amaliyotining oldini olishga xizmat qiluvchi davlat tizimlari va siyosatlarini baholashni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv axloqiy chegaralar va integritet siyosatiga nazar tashlashni auditorlik ishining ajralmas qismiga aylantiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

EUROSAI TFA&E 2014–2017 yillarda axloqiy masalalarni auditorlik tekshiruvlariga qanday qo'shish bo'yicha mavjud tadqiqotlar, metodologiya va tajribalarni xaritalab, sohadagi yetakchi xalqaro institutlar bilan hamkorlikda amaliy qo'llanmani ishlab chiqqan. Bu qo'llanma SAIlar uchun yo'l-yo'riqlar, misollar va axloqiy auditini o'tkazishda qo'l keladigan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Yevropa tajribasida axloqiy audit turlari keng qamrovli: u ichki nazorat tizimining "etika komponenti"ni tekshirish orqali tashkilotdagi kuchli-noqulay nuqtalarni aniqlash, butun muassasa yoki sektor miqyosida axloqiy boshqaruv tizimlarining mavjudligi va ishlashini baholash, shuningdek, muayyan mavzular bo'yicha transversal tekshiruvlarni o'z ichiga oladi. Bunda audit maqsadi, qamrovi va savollari aniq qo'yilib, ISSAI 100/200/300/400 kabi xalqaro standartlar bilan uyg'unlik ta'minlanadi, firibgarlik, korrupsiya yoki nomunosib xatti-harakatlarni aniqlash bilan bog'liq yondashuvlar esa ishda integratsiya qilinadi.

Axloqiy auditning amaliy instrumentlari sifatida yetuklik (maturity) modellari va IntoSAINT kabi integritetni baholash usullaridan foydalaniladi: kodekslar, qadriyatlar va onglilik, rahbariyat munosabati, tashkiliy madaniyat, ishga qabul qilish va javobgarlik-shaffoflik kabi "qattiq" va "yumshoq" nazoratlar darajasi baholab boriladi. Bunday baholashlar boshqaruv mezonlari hamda natija mezonlari bo'yicha bo'shliq va zaif nuqtalarni ochib beradi; shundan keyin aniq yaxshilash tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Korrupsiya xavfini kamaytirishda tashqi steypolderlarni (ombudsman, antikorrupsiya organi, ichki auditorlar, mahalliy audit institutlari, nufuzli NNOlar) jalb etish, yillik tarzda yangilanadigan xavf xaritalari va fon tadqiqotlarini tayyorlash va ularni omma bilan o'rtog'lashish muhim. Bu choralar integritet infratuzilmasini kuchaytiradi, erta signal tizimini ishga tushiradi va jamoatchilik nazoratini kengaytiradi.

Yevropa tajribasi axloqiy auditni ichki nazorat va yaxshi boshqaruv qo'llanmalari bilan bog'laydi: INTOSAI GOV 9100-9160 yo'riqnomalari, COSO ramkasi, shuningdek IDI va AFROSAI-E tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha audit gidlari SAIlarga saqlanish kerak bo'lgan standartlar, vazifalar va "qizil bayroq" indikatorlarini beradi. Bu paket korrupsiyani oldindan bartaraf etish, riskka asoslangan audit rejalarini tuzish va ichki nazoratdagi yetishmovchiliklarga manzilli ta'sir ko'rsatish imkonini oshiradi.

Natijada axloqiy audit davlat sektorida ikki yo'nalishda samara beradi: birinchisi, korrupsiya xavfini pasaytirish - manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, integritet siyosatiga rioyati tizimli o'lchash orqali xatarlar bazasini qisqartiradi; ikkinchisi, auditorlik hisobotlarining samaradorligini oshirish - audit savollari, dalillar va mezonlar aniqligi ortib, tavsiyalar manzilli va ijro etilishi mumkin bo'lgan shaklda beriladi, bu esa audit ta'sirini (impact) kuchaytiradi. Mavzularni tanlashda ta'sirni maksimallashtirish tamoyili ham qo'llanadi - resurslar va kompetensiyalar hisobga olingan holda jamoatchilik uchun ahamiyatli ob'yektlar tanlanadi, bu esa hisobotlar o'quvchanligini va amaliy qimmatini oshiradi.

O'zbekistonda xalqaro tajribalar asosida auditorlik etikasi

Ma mlakat / Tashkilot	Etik yondashuv	Kuchli jihatlari	Mua mmolar	O'zbeki ston uchun tavsiyalar
Yevr opa (EUROSAI)	Axloqi y auditni davlat sektoriga joriy etish, korrupsiya xavfini kamaytirish, integritet va hisobdorlikni ta'minlash	Integritet siyosati, shaffoflik, jamoatchilik ishonchi va hisobdorlikni kuchaytirish	Etik audit samaradorligi SAI resurslariga bog'liq, mamlakatlar kesimida uyg'unlik muammosi	Axloqiy audit va integritet siyosatini davlat sektorida institusionallasht irish
Avst raliya	Audito r mustaqilligini kuchaytirish, manfaatlar to'qnashuvini cheklash, moliyaviy hisobot	Mustahka m huquqiy asoslar, mustaqillikni himoya qiluvchi institusional mexanizmlar	FSI modelini joriy qilishda qiyinchiliklar , no-audit xizmatlari ta'siri saqlanishi	Auditor mustaqilligini kuchaytirish uchun manfaatlar to'qnashuvi cheklovlari va bozor

	sugʻurtasi (FSI) modelini qoʻllash		mumkin	mexanizmlarini joriy etish
Janu biy Afrika	Kasbiy skeptisizm darajasini baholash, tashqi va ichki bosimlar taʼsirini aniqlash, muntazam etik treninglar	Etik qoidalar boʻyicha xabardorlik yuqori, skeptisizmni kuchaytirish imkoniyatlari mavjud	Etika bilimlari amaliy ijroda bosimlar sababli sust namoyon boʻladi	Etik treninglar va skeptisizm indikatorlarini yoʻlga qoʻyish
Indo neziya	Kasbiy etika bilan birga emosional intellektni qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish	Emosion al intellekt etika bilan uygʻunlashib, qaror qabul qilish sifatini oshiradi	Emos ional intellektni oʻquv dasturlariga toʻliq kiritish yetarli darajada emas	Emosion al intellekt modullarini auditorlar tayyorgarligiga integratsiya qilish

O'zbekiston	Qonun chilikda umumiy etika talablari belgilangan, lekin skeptisizm va emosional kompetensiyal arni baholash mexanizmi yetarli emas	Milliy qonunchilik IFAC va INTOSAI talablari bilan uyg'unlashtirilmo qda	Kode ks umumiy, indikatorlar va institusional nazorat vositalari yetarli emas	Milliy kasbiy etika kodeksini yangilash va xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish
--------------------	--	--	--	---

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribalarda auditorlik etikasini takomillashtirishda turli mamlakatlar o'zlariga xos yo'l va mexanizmlarni ishlab chiqqan. Yevropa mamlakatlarida axloqiy audit davlat sektorida asosiy profilaktik vosita sifatida qo'llaniladi. Uning eng muhim afzalligi – korrupsiya xavfini kamaytirish va jamoatchilik ishonchini oshirishdir. Shu bilan birga, axloqiy audit samaradorligi ko'p hollarda oliy auditor tashkilotlarining resurslari va ichki imkoniyatlariga bog'liq.

Avstraliya tajribasi auditor mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Bu mamlakatda manfaatlar to'qnashuvini cheklash bo'yicha qat'iy qoidalar mavjud bo'lib, moliyaviy hisobot sug'urtasi kabi bozor mexanizmlari qo'llaniladi. Biroq

bu modelni to'liq joriy etishda iqtisodiy va tashkiliy qiyinchiliklar kuzatiladi, ayniqsa no-audit xizmatlarining ta'siri butunlay yo'qolmagan.

Janubiy Afrikada kasbiy etika va skeptisizm masalalari markazda tursa-da, amaliy faoliyatda tashqi va ichki bosimlar sababli qoidalarga rioya qilishda uzilishlar bor. Bu holat etika bilimlarini doimiy ravishda amaliy ko'nikmalarga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

Indoneziya amaliyoti kasbiy etika bilan bir qatorda emosional intellektni qaror qabul qilish jarayoniga qo'shishni nazarda tutadi. Bu yondashuv auditorlar ishida shaffoflik va ishonchni kuchaytirib, qarorlar sifatini oshirishi bilan ahamiyatli. Biroq emosional intellektni o'quv dasturlariga to'liq kiritish hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekistonda qonunchilikda kasbiy etika umumiy tarzda belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda skeptisizمنى o'lchash va emosional qobiliyatlarni baholash mexanizmlari hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Kodeks umumiy qoidalarni o'z ichiga olsa-da, indikatorlar va institusional nazorat vositalari yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston uchun xalqaro tajribalardan eng muhim xulosalar quyidagilar: Yevropa tajribasidan axloqiy auditni davlat sektorida institusionallashtirish, Avstraliyadan mustaqillikni moddiy va tashkiliy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini joriy etish, Janubiy Afrikadan skeptisizm indikatorlari va muntazam treninglar tizimini yo'lga qo'yish, Indoneziyadan esa emosional intellekt modullarini auditorlar tayyorgarligiga integratsiya qilish. Milliy amaliyotda eng dolzarb vazifa – kasbiy etika kodeksini yangilash va uni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, shu orqali auditorlik kasbining nufuzini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashdir.

2-jadval

Auditorlik etikasi: xalqaro tajribalar va O‘zbekiston uchun xulosalar

Yo ‘nalish	Ye vropa (EUROSA I)	Avs traliya	Janu biy Afrika	Ind oneziya	O‘z bekiston uchun xulosa
As osiy maqsad	Da vlat sektorida korruptsiya xavfini kamaytirish , hisobdorlik ni oshirish	Mu staqillikni himoya qilish, manfaatlar to‘qnashuvi ni cheklash	Skep tisizm darajasini oshirish va bosimlarni nazorat qilish	Em osional intellekt orqali axloqiy qaror sifatini oshirish	Milli y tizimda mustaqillik va etik qaror sifatini kuchaytirish
Ta dbiq etish usuli	Axl oqiy audit, integritet siyosati, davlat auditida shaffoflik	AP ES 110 kodeksi, moliyaviy hisobot sug‘urtasi (FSI) modeli	Etik treninglar, muntazam so‘rov va kuzatuvlar	Eti k me‘yorlar + emosional qobiliyatlar integratsiya si	Kod eks yangilash, indikatorlar joriy etish, treninglar tashkil qilish

Ku chli jihatlari	Inst itucional qo'llab- quvvatlash, jamoatchili k nazorati	Qat 'iy huquqiy asoslar, mustaqillik ni himoya qilishda innovatsiya	Etika bo'yicha bilim yuqori, qonunchilikn ing mavjudligi	Em osional intellekt orqali ishonchni mustahkam lash	Milli y qonunchilik IFAC va INTOSAI talablariga uyg'unlashti rilmoqda
Ka mchiliklar	Tur li mamlakatla rda uyg'unlik yetishmasli gi	FSI modelini amalga oshirishda murakkabli klar	Ama lda bosimlar ta'siri kuchli	Em osional intellekt ni o'quv dasturlariga to'liq kiritish yetarli emas	Indi katorlar va amaliy mexanizmlar yo'q
O' zbekiston uchun ahamiyati	Da vlat sektorida axloqiy auditni joriy etish	Mu staqillikni moddiy kafolatlash yo'llari o'rganilishi	Skep tisizmni baholash indikatorlari ni yaratish kerak	Em osional qobiliyatlar ni auditor tayyorgarli giga	Kom pleks choralar orqali milliy etika tizimini

	zarur	lozim		kiritish	xalqaro darajaga olib chiqish
--	-------	-------	--	----------	-------------------------------------

2-jadval tahlili shuni anglatadiki, har bir mamlakat va mintaqada auditorlik etikasini ta'minlashda o'ziga xos yondashuvlar qo'llanilmoqda va ularning umumiy maqsadi jamiyatda ishonch, shaffoflik hamda hisobdorlikni mustahkamlashdan iborat. Yevropa tajribasida axloqiy audit davlat sektorida korrupsiya xavfini kamaytirish va integritet siyosati orqali hisobdorlikni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu model O'zbekiston uchun ham dolzarb, chunki davlat mablag'laridan samarali foydalanish va nazoratni kuchaytirish milliy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Avstraliya tajribasi auditor mustaqilligini ta'minlashda huquqiy asoslar bilan birga bozor mexanizmlarini ham qo'llaydi. Moliyaviy hisobot sug'urtasi kabi innovasion yechimlar auditorning mustaqilligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tajriba O'zbekistonda ham manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda va auditorlik faoliyati samaradorligini oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Janubiy Afrika amaliyotida kasbiy etika qonunchilikda mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliy faoliyatda tashqi va ichki bosimlar ta'siri kuchliligini ko'rsatadi. Bu holat bilim va amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligini anglatadi. Shuning uchun O'zbekiston uchun skeptisizmni baholash indikatorlari va muntazam etik treninglarni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Indoneziyada kasbiy etika bilan birga emosional intellekt ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv auditorlarning muloqot qobiliyati va ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish salohiyatini kuchaytiradi. O‘zbekistonda auditor tayyorgarligi dasturlariga emosional qobiliyatlarni kiritish orqali auditorlik jarayonida ishonch va samaradorlikni oshirish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro tajribalardan olinadigan xulosa shundan iboratki, O‘zbekistonda auditorlik kasbiy etikasini takomillashtirish uchun kompleks choralar zarur. Yevropa tajribasidan axloqiy auditni davlat sektoriga joriy etish, Avstraliyadan mustaqillikni moddiy jihatdan kafolatlash, Janubiy Afrikadan skeptisizm indikatorlari va muntazam treninglar, Indoneziyadan esa emosional intellektni tayyorgarlik jarayonlariga integratsiya qilish milliy amaliyotni xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtiradi. Bu choralar auditorlik kasbining jamiyatdagi nufuzini oshirib, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, auditorlik kasbiy etikasini mustahkamlash jamiyatda ishonchni oshirish, davlat moliyalari ustidan nazoratni kuchaytirish va bozor intizomini ta‘minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida asosiy vazifa - mavjud qonunchilikdagi umumiy me‘yorlarni amalda ishlaydigan mexanizmlar, o‘lchov indikatorlari va mas‘uliyat tartiblari bilan to‘ldirishdir. Buni bosqichma-bosqich, pilot sinovlari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Etik audit amaliyotini joriy etish davlat sektorida integritetni oshirishning eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘li hisoblanadi. Buning uchun axloqiy xavf xaritalarini tuzish, intrigitet siyosati va qoidalariga rioya etilishini tekshirish, manfaatlar

to'qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha maxsus tekshiruv savolnomalari va mezonlarini ishlab chiqish zarur. Etik audit natijalari bo'yicha manzilli tavsiyalar, ijro muddatlari va javobgar tuzilmalar aniqlanadi; takroriy tekshiruv orqali ijro intizomi baholanadi. Ilk bosqichda bir nechta yirik vazirlik va davlat ulushi yuqori bo'lgan sub'yektlarda pilot sinov o'tkazilib, metodika hamda hisobot formatlari saralanadi, so'ngra butun sektorga kengaytiriladi.

Auditor mustaqilligini kuchaytirish moddiy va tashkiliy kafolatlar bilan ta'minlanishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvini cheklovchi qoidalar aniq va ijro etiluvchi bo'lishi, no-audit xizmatlari bo'yicha cheklovlar va ochiqlash talablari joriy etilishi lozim. Auditorlik tashkilotlarida majburiy rotatsiya va "sovish" (cooling-off) tartiblari qo'llanilib, mijozga to'lanadigan haqlar tuzilmasi, konsalting ulushi va har qanday rag'batlantirish shartlari ochiq e'lon qilinadi. Mustaqillik buzilishi holatlarini ko'rib chiquvchi tartib-intizom komissiyasi faoliyati shaffof, qarorlari esa qonuniy oqibatlariga ega bo'lishi zarur. Ixtiyoriy tarzda moliyaviy hisobot bo'yicha kafolat-sug'urta instrumentlarini pilot shaklda qo'llash imkoniyati o'rganilib, rag'batlar arxitekturasidagi asimmetriyalar yumshatilishi mumkin.

Kasbiy skeptisizmni rivojlantirish uchun doimiy etik tayyorgarlikni keys-simulyasiyalar va voqeaga yaqin ssenariylar bilan bog'lash talab etiladi. Tekshiruv jarayonida alternativ gipotezalar qo'yish, ziddiyatli dalillarni qayd etish, yetarli emas dalil holatida tekshiruvni chuqurlashtirish kabi amaliyotlar chek-listlar ko'rinishida standartlashtiriladi. Skeptisizm darajasini baholovchi indikatorlar - treninglarda qatnashish chastotasi, alternativ dalil izlash ulushi, ziddiyatli dalillar jurnali, tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqish (peer review) natijalari - firma va SJIF:5.219

tarmoq darajasida muntazam monitoring qilinadi; attestatsiya va qayta tayyorlash talablariga ushbu indikatorlar mos integratsiya qilinadi.

Emosional intellektni o'quv dasturlariga kiritish etik qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Muloqot madaniyati, ziddiyatni boshqarish, stressga chidamlilik, manfaatlar to'qnashuvida konstruktiv pozitsiyani saqlash kabi kompetensiyalar uchun modullar ishlab chiqilib, ular majburiy qayta tayyorlash kurslarining bir qismiga aylantiriladi. Mentorlik va superviziya institutlari orqali yosh auditorlar uchun kuzatuv-tahlil sessiyalari yo'lga qo'yiladi; yuqori xavfli tekshiruvlarda tarkibiy jamoalarga psixologik barqarorlik bo'yicha ekspert qo'shilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. EUROSAT Task Force on Audit & Ethics (2017). *Ethics and Auditing: Managing Ethics in Supreme Audit Institutions*. Madrid: EUROSAT Secretariat, p. 42.
2. IFAC (2018). *International Code of Ethics for Professional Accountants (including International Independence Standards)*. New York: IFAC, 134 p.
3. INTOSAI (2016). *ISSAI 30 – Code of Ethics*. Vienna: INTOSAI, 27 p.
4. Townsend, A. (2014). *Regulating Auditor Independence and Ethics in Australia: Conflict of Interest and Public Trust*. Sydney: CPA Australia Research Report, p. 58.

5. Mbanjwa, S. (2019). *Professional Ethics and Skepticism among Accountants and Auditors in South Africa*. Johannesburg: University of Johannesburg, p. 76.
6. Simatupang, T., Diana, P. (2025). *Ethical Decision-Making, Emotional Intelligence and Auditor Performance: Evidence from Indonesia*. Jakarta: Indonesian Accounting Review, p. 95.
7. Surya, R., Abdumannonovna, M. (2024). *Auditor Ethics, Professional Experience and Independence: Impact on Audit Quality*. Tashkent: Economic Sciences Journal, p. 64.
8. Arens, A., Elder, R., Beasley, M. (2017). *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. 16th ed. New Jersey: Pearson, p. 231.
9. Sheremet, A.D., Suvorov, A. (2018). *Teoriya i praktika audita*. Moscow: Infra-M, 287 p.